

4-курс.  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olingan. № BD.60310100.1.23.  
2024-yil " 26 " 06

INNOVATSION IQTISODIYOT  
FANING O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi: 300000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
- Ta'lim sohasi: 310000- Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar
- Ta'lim yo'nalishi: 60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Fan/modul kodi ECOINN6	O'quv yili 2024-2025	Semestr 7	Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Haftadagi dars soatlari 8	
1.	Fanning nomi Innovatsion iqtisodiyot	Auditoriya mashg'ulotlari 32	Mustaqil ta'lim (soat) 148
2.	Fanning mazmuni		
<p><b>Fanni o'qitishdan maqsad (Objectives)</b> - talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotda innovatsiyalarning egallagan o'rnini tavsiflash, iqtisodiyot va aholining innovatsion mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari to'g'risida nazariy bilimlarni shakllantirish va amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Ushbu madsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p><b>Fanning vazifalari</b> - talabalarni fan yuzasidan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, innovatsion jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishni o'rgatishdan iborat.</p>			
3.	<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>1-mavzu. "Innovatsion iqtisodiyot" faniga kirish</b></p> <p>Fanning vazifalari. Innovatsion iqtisodiyot - fan va o'quv kursi sifatida. Ushbu fanning obyekt. Innovatsiyaning ta'rifi va tavsifi. "Innovatsion iqtisodiyot" kursining predmeti. "Innovatsion iqtisodiyot" fanining uslubiyati. Kursning tuzilishi va uning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'ri hamda boshqa o'quv fanlari bilan bog'liqligi. "Innovatsion iqtisodiyot" fanining bozor iqtisodiyoti sharoitiga mosligi.</p> <p><b>2-mavzu. Iqtisodiyotda innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari</b></p> <p>Innovatsiyaning hayotiylik davri. Innovatsion davr tushunchasi. Korxonada innovatsion faoliyatda iqtisodiy usullarni ahamiyati. Innovatsion faoliyatni boshqarish konsepsiyasi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasi va innovatsion rivojlanish. Zamonaviy resurs tejamo: texnologiyalarni qo'llash natijalari.</p>		

<p>Innovatsiya bozorining boshqarish uslubiyoti: "Texnologik turtki" gipotezasi va "Bozor talabi bosimi". Ilmiy-texnologik rivojlanishda iqtisodiy holati. Mahsulotning hayot bosqichlari va texnologiyalarning integrallashgan rivojlanishi o'rtasidagi qonuniyatlar.</p> <p><b>3-mavzu. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari va innovatsiyalarning sohalari bo'yicha turlari</b></p> <p>Korxonada innovatsion faoliyatda iqtisodiy usullarni ahamiyati. Innovatsion boshqarish konsepsiyalari. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari. Mehnat motivatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy usullarini tatbiq etish. Innovatsion faoliyatni iqtisodiy samaradorligi. Korxonaning innovatsion salohiyati. Innovatsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'ri. Korxonaning innovatsion salohiyati va uning elementlari. Iqtisodiy sohadagi innovatsiyalar. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi. Texnologik innovatsiyalar. Marketing innovatsiyalari. Narxlarini shakllantirishdagi innovatsiyalar. Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar. Innovatsion hamkorlikda shartnoma munosabatlarini belgilash.</p> <p><b>4-mavzu. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish</b></p> <p>Faol innovatsion-investitsion siyosat. Ilg'or xorijiy mamlakatlar innovatsion faoliyatini o'rganish. AQSH, Yaponiya, Isroil, Germaniya, Xitoy, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarni tajribalari. "Fan - innovatsiya - investitsiya - ishlab chiqarish" zanjiri eksperimental va amaliy ishlanmasi.</p> <p><b>5-mavzu. O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi</b></p> <p>O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishning dolzarbligi. Bilim, yaratish va innovatsiya iqtisodiy tizim raqobatbardoshligini ta'minlashning bosh omili sifatida. Mamlakatning innovatsion rivojlantirish strategiyasi va 2030-yilgacha global innovatsion rivojlanish indeksini belgilovchi ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar tizimi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. O'zbekistonning jahon bozoridagi fan sig'imi yuqori mahsulotlardagi roli va o'ri. Innovatsion rivojlanish agentligining milliy innovatsion tizimdagi roli. Innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari. Innovatsion g'oyalari, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasi. Innovatsion faoliyatni axborot ta'minoti. Kadrlar ta'minoti. Davlat ilmiy texnik dasturi va uni bajarilishini muvofiqlashtirish va</p>
--

monitoring tizimi. Intellektual mulk huquqini himoyalash tizimi.

#### 6-mavzu. Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish

Innovatsion marketingni mazmun-mohiyati. Innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonlari. Innovatsion marketing tushunchalari. Innovatsion marketingga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Innovatsion marketingni qo'llash uslubiyoti. Innovatsion marketing faoliyati samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar turkumi. Innovatsion marketing salohiyatini baholash. Innovatsion marketing faoliyati samaradorligini oshirish. Innovatsion mahsulotlar bozorida narxning shakllanishi va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ilmiy tadqiqot va texnologik hujjatlarni tijoratlashtirish tizimi va ularning huquqiy muhofazasi. Innovatsiya bozorida marketing jarayonida raqobatchilar ta'sirini bashoratlash va raqobatni bartaraf etish choralarini.

#### 7-mavzu. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi. Innovatsion kompaniyalar ustav kapitalini shakllantirishning xususiyatlari. Innovatsiyalarning turli bosqichlarida moliyalashtirishning tartibi. Davlat innovatsion dasturlarini moliyalashtirish va uning asosiy bosqichlari. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan innovatsion loyihalar. Moliyalashtirish manbalari. Davlat grantlari. Venehur fondlarning tashkil etilishi va faoliyatini boshqarish. Moliyalashtirish darajasini aniqlash usullari. Korxonaning o'z mablag'lari hisobidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish. Joriy xarajatlar. Kapital xarajatlar. Ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish manbalari. Loyihalar va ularning turlari. Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlarning roli. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning xorij tajribasi.

#### 8-mavzu. Iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish zaruriyati

Innovatsion iqtisodiyotda klasterlar siyosati. Innovatsion texnologiyalarni amalga oshirishda klaster usullarni qo'llashni ahamiyati. Innovatsion faoliyatni klaster usulida qo'llashda uni davlat tomonidan boshqarish. Innovatsion klasterlar va ularni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi. Milliy va xalqaro innovatsiyalar almashimuv. Shartnoma munosabatlarini belgilash. Istiqbolli ishlab chiqarish va texnologiyalar sxemasi. Innovatsion klasterlarni turlari. Innovatsion klasterlarni tashkil etish afzalliklari. Intellektual klasterlar. Sanoat klasterlari. Texnologik klasterlar. Innovatsion klasterlar bo'yicha strategik dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish.

4.

### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (fan bo'yicha laboratoriya ishlari va kurs ishlari mo'ljallanmagan)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Innovatsion iqtisodiyot" faniga kirish.
2. Iqtisodiyotda innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari va innovatsiyalarning sohalar bo'yicha turlari.
4. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish.
5. O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi.
6. Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish.
7. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi.
8. Iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish zaruriyati.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jhozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Guruhlarga beriladigan savollar va topshiriqlarga javoblar slaydlar, jadvallar ko'rinishida Excel, Power Point kompyuter dasturlarida tayyorlanadi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda internet tizimidan keng foydalaniladi va uy vazifalarini qabul qilish taqdimot usulda amalga oshiriladi. Fanga oid masala va testlardan foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, fanga doir turli darslik hamda o'quv qo'llanmalar asosida, tarqatma materiallardan foydalanish orqali talabalar bilimlarini oshirish, statistik ma'lumotlar asosida mavzular bo'yicha tahlillar olib borish, masalalar yechish va boshqalar tavsiya etiladi.

5.

### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari o'quv dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rish kerak.

Mustaqil ta'limning turli shakllari mavjud bo'lib, unda talaba o'qituvchi rahbarligida fan bo'yicha yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi.

Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

- tarqatma materiallar bo'yicha fan bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'yicha yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalar o'quv-ilmij tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'yicha mavzularini chuqur o'rganish;
- masofaviy ta'lim;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanilgan o'quv mashg'ulotlari.
- o'quv qo'llanmalar yordamida fan mavzularini o'rganish.


**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:**

1. Innovatsiyaning mohiyati, ahamiyati va turlari.
2. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.
3. Innovatsion jarayonlarning modellari.
4. Iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari.
5. Iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar.
6. Innovatsion muhit – samarali innovatsiyalarning muhim sharti sifatida.
7. Intellektual mulk va uni himoya qilish usullari.
8. O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi.
9. Mamlakatimizning innovatsion rivojlanish strategiyasi.
10. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.
11. Innovatsion iqtisodiyotni samarali boshqarish tizimlari.
12. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlari.
13. Innovatsion mahsulotlarni bozorga olib chiqish.
14. Innovatsion iqtisodiyotda inson omilini faollashtirish yo'llari.
15. Innovatsiyalar samaradorligini baholash usullari.
16. Innovatsiyalarni rejalashtirishning mohiyati va prinsiplari.
17. Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish.
18. Iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish zaruriyati.
19. Innovatsion biznesni rivojlantirish yo'nalishlari.
20. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi.
21. Innovatsion loyihaning samaradorligi ko'rsatkichlari.
22. Innovatsion bozor tuzilmasi va uning yangi texnologiyalar rivojlanishi.
23. Innovatsion loyihalarni portfelini shakllantirish.
24. Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish.
25. Texnologiyalar ko'rinishidagi innovatsiyalar va ularning samaradorligi.
26. Innovatsiyaning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
27. Bilimlar va innovatsiyalar diffuziyasi.
28. Texnologiyalar konsortsiyalarining innovatsiyalarga ta'siri.
29. O'zbekistonda patent huquqini ta'minlash yo'nalishlari.
30. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti.

31. O'zbekiston Respublikasida ilmiy kashfiyotlarni muhofazalash yo'llari.
32. Sanoat namunasini patentga layoqatlilik shartlari.
33. Tovar belgilarining turlari va ularga talabnomalar tuzish.
34. Ilmiy tadqiqot, ishlanmalar va texnologiyalarni natijalarini tijoratlashtirish.
35. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi.
36. Innovatsion dasturlar va ularni amalga oshirish.
37. Jarayon innovatsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish usullari.
38. Innovatsiya strategiyalarini ishlab chiqish yo'llari.
39. Innovatsion jarayonlarda zamonaviy usullardan foydalanish.
40. Innovatsion sohada kadrlarni boshqarish tizimi.
41. Innovatsion faoliyat infratuzilmasi va uning tashkil etilishi.
42. Zamonaviy innovatsion strategiyalar va innovatsiyalar marketing.
43. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.
44. Innovatsion iqtisodiyotda xizmatlar bozorini rivojlantirish.
45. Patent, litsenziya va sertifikatlar olish uchun shartnomalar tuzish.
46. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsion loyihalarning ahamiyati.
47. Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari.
48. Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish.
49. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi.
50. Iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish zaruriyati.
51. Ilmiy-texnik taraqqiyotni raqbatlantirish mexanizmi.
52. Ilmiy-texnik taraqqiyotini rejalashtirish strukturasi.
53. Ilmiy-texnik taraqqiyotni rejalashtirish.
54. O'zbekiston Respublikasida ekologik innovatsiyalar.
55. Ilmiy ishlab chiqarish majmualarining asosiy turlari.
56. Ilmiy-texnik taraqqiyotni boshqarishni tashkil etish.
57. Texnik topshiriqlarni ishlab chiqarish va tasdiqlash.
58. Fundamental tadqiqotlarni tashkil etish asosiy bosqichlari.
59. Y angiliklarning ijtimoiy imkoniyatlarini o'rganish.
60. Fan-texnika siyosatining muhim yo'nalishi.
61. Dunyo miqyosida yuqori texnologik darajaga erishish yo'llari.
62. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti.
63. Ishlab chiqarishni ilmiy texnik darajasi.
64. Mahsulotning texnologik darajasi.
65. Ilmiy ishlab chiqarish xodimi mehnatiga haq to'lashni tashkil etish.
66. Ilmiy-texnik kadrlar tayyorlash.
67. Ixtironi ishlab chiqarishga tadbir etishning mutlaq huquqi.
68. Loyiha-konstruktorlik va texnologik tashkilotlar.
69. Texnik-iqtisodiy ishlanmalar va ularning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni.
70. Innovatsiyalar samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.
71. Bozorda innovatsion mahsulotni ilgari surish.
72. Innovatsion loyihaning amalga oshirish natijasi.

9.	<p><b>VIII. Fan bo'yicha adabiyotlar va axborot manbalari.</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirzayev Q.J., Shavqiyev E.Sh., Janzakov B.K. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. -Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020, 298 b.</li> <li>2. Taniyev A. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik, - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020, 460 b.</li> <li>3. Aliyev Y.E. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma, -Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019, 236 b.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" NMILU, 2021. -464 b.</li> <li>2. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 24-iyul, O'RQ-630-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/20/630/1101-son.</li> <li>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.</li> <li>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrda IIm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni.</li> <li>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3697-sonli qarori.</li> <li>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrda "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son Farmoni.</li> <li>7. Ergashev R.X. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari. //Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.</li> <li>8. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. "Innovatsiya faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish". O'quv qo'llanma. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.-110 b.</li> <li>9. Abulgosimov H.P. O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini ta'minlash omillari. "Iqtisod va moliya" jurnali, 2022-yil 3(151)-soni, 62-69-betlar</li> </ol> <p><b>Internet saytlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.stat.uz">http://www.stat.uz</a> (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)</li> <li>2. <a href="http://www.ima.uz">http://www.ima.uz</a> (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)</li> <li>3. <a href="http://www.academy.uz">http://www.academy.uz</a> (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)</li> </ol>
----	---

<p>73. korporativ innovatsion mahsulot ishlab chiqarish.</p> <p>74. Innovatsiyalarni takomillashtirish bosqichlari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p><b>V. Fan o'qitilishidan kutiladigan natijalar (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• innovatsion taraqqiyotning umumiy asoslari, innovatsion rivojlanish bosqichlari, innovatsiyalarni joriy etish yo'nalishlari va oqibatlari; innovatsion iqtisodiyotning xususiyatlari; innovatsion rivojlanish qonuniyatlari va kategoriyalarini <i>bilishi</i>;</li> <li>• innovatsion iqtisodiyot asoslarini, milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va rivojlanishi qonuniyatlarini; makroiqtisodiy darajadagi innovatsion jarayonlarning amal qilish qonuniyatlari yuzasidan <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</li> <li>• innovatsion jarayonlarni tahlil qilish usullarini bilgan holda samarali qo'llash; iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni qo'llash qonunlarini, innovatsion iqtisodiyotda ilmiy tushunchalarning (kategoriyalarining) amal qilish xususiyatlarini, mexanizmlarini bilgan holda yechimlar qabul qila olish <i>malakasiga ega bo'lish kerak.</i></li> </ul> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;</li> <li>• esse, tezis va maqolalar yozish;</li> <li>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;</li> <li>• jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;</li> <li>• muhokamalarda ishtirok etish;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>• loyiha ishi bajarish;</li> <li>• mustaqil ishlarni bajarish;</li> <li>• taqdimot tayyorlash;</li> <li>• turli darajadagi testlarni yechish;</li> <li>• so'rov o'tkazish.</li> </ul> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish.</p>
6.	8.

10.	<p>Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Fan/modul uchun mas'ullar:  Turayev B.E. - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, PhD.  Nurmatov N.J. - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi.  Egamnazarova G.X. - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi.</p> 
11.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Termiz davlat universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası mudiri, i.f.d.Gadoyev S.J.</p> <p>Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.n.Avliyaqulov A.A.</p>